

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

XALQARO IJTIMOIIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№: O'RT1204

REKTOR:

U. AZIZOV

"TASDIQLAYMAN"



**O'ZBEK TILI FANINIG
O'QUV DASTURI**

Ta'lim yo'nalishlari:

Level 3 International Foundation Diploma for Higher Education Studies
(Innovative and Progressive Education, Innovation and Business
Management, Innovative Information Technologies)

Toshkent -2024

Fan/modul kodi O’RT1204		O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS-Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O‘zbek tili	48		72	120
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad –talabalarning quyi ta'lim bosqichlarida egallagan nutqiy faoliyat turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish, egallanayotgan ixtisoslik doirasida davlat tilini puxta bilishlariga erishish, jahon va milliy madaniyatga hissa qo‘shgan buyuk allomalar ijodiy merosini o‘rgatish, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta tashabbus tarkibidagi talabalarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'at yo‘nalishlariga qiziqishini oshirish, o‘zbek tilidan og‘zaki va yozma nutqiy savodxonlikni ta’minlashga erishish. Fanning vazifasi - talabalarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish, fikrga o‘z munosabatini bildirish, turli nutq uslublarida ixtisoslikka oid matn tuza olish, tushunib o‘qish va tarjima qila olish, turli tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini oshirish, o‘zbek tilidagi axborotni tushunish va qayta ishlash, unga tanqidiy, tahliliy munosabat bildirish hamda rasmiy ish qog‘ozlarini yozishga o‘rgatish. II. Asosiy nazariy qism (amaliy mashg‘ulotlar) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. O‘zbekiston - suveren respublika. Imlo tamoyillari. Mutolaa: Muhammad Yusuf. “Vatanim” she’ri. (2 soat) 2-mavzu. Jahon tillaridan saboq beruvchi maskan. O‘zbek tilining so‘z yasash usullari xususida. Mutolaa: Avaz O'tar." Til" she'ri. (2 soat) 3-mavzu. Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba. O‘zbek tilida barqaror birikmalar. (Ibora, aforizm, maqol va matallar). Mutolaa: Alisher Navoiy aforizmlari. (2 soat) 4-mavzu. Intellektual yoshlar - kelajak poydevori. O‘zbek tili leksikasi.				

	Leksikaning boyish manbalari. Umumxalq ishlatadigan soʻzlar. Kasb-hunar leksikasi. Mutolaa: Iqbol Mirzo. “Aytgil, do‘stim...” she’ri. (2 soat) 5-mavzu. Zamonaviy dunyoda ta’lim. Gap tuzilishi. O‘zbek tilida subyektni ifodalash. Mutolaa: Oydin Hojiyeva "Yoshlarga deganim" she’ri. (2 soat) 6-mavzu. Talabalik – oltin davrim. O‘zbek tilida predikat. Predikat va subyekt o‘rtasidagi munosabat. Mutolaa: Dilshod Rajab."Talabalik- oltin davrimsan" she’ri. (2 soat) 7-mavzu. Ustozlar hayoti - mahorat maktabi. Harakatning zamonini ifodalash. Mutolaa: Azim Suyun. “Ustoz va shogird” she’ri. (2 soat) 8-mavzu. Til - xazina. O‘zbek tilida harakatning voqelikka munosabatini ifodalash. Mutolaa: Xurshid Davron. “Ona tilim” she’ri. (2 soat) 9-mavzu. Teatr - tarbiya maskani. O‘zbek tilida harakat va uning bajaruvchisi o‘rtasidagi munosabat. Mutolaa: Omon Matchon. “Ko‘rdim, Shukur Burxon “Hamza”dan chiqib...” she’ri. (2 soat) 10-mavzu. Kompyuterlashtirish va kelajak kasblari. O‘zbek tilida belgini sifatlab, izohlab ifodalash. Qarashlilikni ifodalash. Mutolaa: Normurod Norqobilov. “Olim o‘g‘il” hikoyasi. (2 soat) 11-mavzu. Davrimizning global muammolari. O‘zbek tilida obyektini ifodalash. Mutolaa: Erkin A'zamov."Ko'k eshik" hikoyasi. (2 soat) 12-mavzu. Mahalla - Vatanning bir bo‘lagi. O‘zbek tilida o‘rin ma'nosini ifodalash. Mutolaa: O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan parcha. (2 soat) 13-mavzu. Qomusli el - nomusli el. O‘zbek tilida payt ma'nosini ifodalash. Mutolaa: Tohir Malik. “Odamiylik mulki” (asaridan parcha). (2 soat) 14-mavzu. O‘zbekiston - ko‘p millatli ahil mamlakat. O‘zbek tilida sabab ma'nosini ifodalash. Mutolaa: Mirza Kenjabek. “O'zbekiston” she’ri. (2 soat) 15-mavzu. Sport - tinchlik va do‘stlik timsoli. O‘zbek tilida maqsad ma'nosini ifodalash. Mutolaa: G'afur G'ulom."Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi. (2 soat). 16-mavzu. O‘zbekiston - xalqaro musiqa festivallari mezbani. O‘zbek tilida harakatning holati va daraja miqdorini ifodalash. Mutolaa: Shukur Xolmirzayev."Qariya" hikoyasi. (2 soat) 17-mavzu. Vatan himoyasi - muqaddas burch. O‘zbek tilida natija va to‘siqsizlik ma'nolarini ifodalash.
--	--

Mutolaa: Hamid Olimjon. "Roksananing ko'z yoshlari" balladasi. (2 soat).

18-mavzu. O'zbekiston buyuk daholarga beshik bo'lgan yurt. O'xshatish-qiyoslash ma'nosini ifodalash.

Mutolaa: Erkin Vohidov. "O'zbek Navoiyni o'qimay qoysa..." she'ri. (2 soat)

19-mavzu. Mutolaa - tafakkur timsoli. Fikrga munosabat bildirish.

Mutolaa: Zahiriddin Muhammad Bobur. "Yaxshilig" radifli g'azal. (2 soat)

20-mavzu. Do'stlik – qudratli kuch. Fikrni bog'lanishli ifodalash. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Mutolaa: Zulfiya. "Mushoira" she'ri. (2 soat)

21-mavzu. Ayolini e'zozlagan yurt aslo xor bo'lmas. Nutq va matn turlari.

Mutolaa: Zulfiya Mo'minova. "Ayolga baxt bering.." she'ri. (2 soat)

22-mavzu. Milliy odat va qadriyatlar - el iftixori. Tasviriyl matn.

Mutolaa: Abdulla Qahhor. "Dahshat" hikoyasi. (2 soat)

23-mavzu. O'zbekiston - turizm diyori. Muhokama matn.

Mutolaa: Halima Xudoyberdiyeva. "Ona elim" she'ri. (2 soat)

24-mavzu. Bo'sh vaqt - xush vaqt. Oddiy va adabiy so'zlashuv uslubi.

Mutolaa: Tog'ay Murod. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidan parcha. (2 soat)

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda dasturda ko'rsatilgan mavzular doirasida har bir ta'lim yo'nalishiga mos metodlar va topshiriqlar turlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Fanni o'qitishda axborot (taqdimot, multimedia texnologiyalari) va ta'limning zamonaviy texnologiyalari (rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, fanni to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar), interfaol metodlar hamda muammoli ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalari, tarqatma materiallardan foydalanish nazarda tutilgan.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Globallashtirish davrida o'zbek tilining mavqeyi.
2. Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga mening hissam.
3. Kelajak yoshlar qo'lida.
4. Kasb bayramiga bag'ishlangan videorolik yaratish.
5. Universitetimiz xalqaro hamkorlik yo'lida.
6. Ajdodlar matonati- avlodlar uchun namuna.
7. O'zbekiston - hunarmandlar o'lkasi.
8. Muzey bo'ylab tarixga sayohat.
9. Turizmni rivojlantirish ellarni yaqinlashtiradi.
10. O'zbek taomlarining dovrug'i dunyoda doston.
11. Ayol borki, olam munavvar.
12. Teatr - hayot akademiyasi.
13. Buyuk ipak yo'li va madaniyatlar istiqboli.
14. "Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi" mavzusida

	reportaj tayyorlash. 15. Dunyoni bolalarga beraylik. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar teatr, muzey, shaharning diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtiradi, buyuk alloma va olimlar hayot yo'li, yozuvchi va shoirlar ijodidan namunalar bilan tanishadi, badiiy asarni mutolaa qiladi, she'r yodlaydi, taassurotlari asosida ijodiy ish yozadi, elektron buklet, elektron albom, audiofayl, videorolik, reportajlar tayyorlaydi, berilgan mavzular asosida ijodiy matn yaratadi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar). Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • o'zbek adabiy tili me'yorlari, nutq uslublari haqida tasavvurga ega bo'lishi; • kasbiy terminologiyani, og'zaki va yozma nutqning turli xususiyatlarini bilishi va bu bilimdan foydalana olishi; • matn tuzish, uni tarjima, tahlil va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishi; • o'zbek tilini o'z ona tili va o'rganayotgan xorijiy tillarga qiyoslash va farqli jihatlarini aniqlay olish, tilda to'g'ri va ravon so'zlay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • kichik guruhlarda ishlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; • taqdimot qilish; • interfaol va innovatsion metodlar, smart-texnologiyalar, grafik organayzer va strategiyalar; • o'yinli texnologiyalar, debat, disputlar; • auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar (noan'anaviy dars shakllari: sayohat-dars, muzey-dars, teatr-dars); • audio-vizual materiallar bilan ishlash; • tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari; • bilim, ko'nikmalarni amalda qo'llashni nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: fanga oid nazariy bilimlarni amalda qo'llay bilish; o'rganilgan nutqiy mavzular doirasida ijodiy va tanqidiy fikrlay olish; turli mavzularda yozma va og'zaki nutq tuza olish; matn ustida ishlay olish; sohaga oid terminlarni erkin qo'llay bilish; kasbiy mavzularda erkin muloqot yurita olish; o'zbek tilining

	o'ziga xos jihatlari, boshqa tillar bilan o'xshash va farqli tomonlari haqida mustaqil mushohada yurita olish; davlat tilida ish yuritish mohiyatini tushunish; o'rganilgan hujjatlarni to'g'ri va sifatli tayyorlay bilish; o'zbek adabiyotining go'zal namunalari, xalqning tarixiy, madaniy hayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan buyuk allomalar merosi haqida gapirib bera olishi; joriy, oraliq nazorat shakllari bo'yicha, mustaqil ta'lim bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirishi kerak.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. – 288 b. 2. Asilova G.A. O'zbek tili. Darslik. – T.: Yosh kuch, 2018. – 436 b. 3. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020. – 515 b. 4. Lafasov U. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Toshkent: ToshDSHI, 2018. – 209 b. 5. Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova D. O'zbek tili. Darslik. – T.: Innovatsiya ziyo, 2020. – 328 b. 6. Yuldasheva Sh. O'zbek tili. Sirtqi va kechki bo'lim uchun. Darslik. – T.: Innovatsiya ziyo, 2020. – 228 b. Qo'shimcha adabiyotlar 7. O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989-y., 26-28-son, 453-modda; 1991-y., 11-son, 273-modda. https://lex.uz/ru/docs/-109394 8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019.06/19/5712/3034-son). https://lex.uz/docs/4561730. 9. Aminov M. va b. Ish yuritish. (Amaliy qo'llanma). –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020. – 528 b. 10. Asilova G. Bojxona tizimida normativ hujjatlarni yuritish (rus guruhlar uchun o'quv qo'llanma). – T.: Tafakkur qanoti, 2017. – 196 b. 11. Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova D. O'zbek tili. Darslik. –

	T.: Innovatsiya ziyo, 2020. – 328 b. 12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (5 jildli). - Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005-2008. Axborot manbalari 1. https://n.ziyouz.com/kutubxona – Ziyouz.com kutubxonasi 2. https://lex.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi 3. https://www.gov.uz/uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal. 4. http://til.gov.uz/uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti 5. https://www.edu.uz/uz – O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
7.	O‘quv dasturi XALQARO IJTIMOY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

